




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-FEVRAL OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 61-222-75-87

www.qrstat.uz




2023 yil yanvar-fevral oylarida



Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalari tomonidan 2437,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 76,9 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 2067,1 mlrd. so‘m jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 84,8 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi kamayishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 24,3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 21,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 2,3 % ga pasayishidir. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 30,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.




2023- yil yanvar-fevral oylarida
Oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan % da

Ohah tosh



Tabiiy gaz




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Ohah tosh, tonna	43192,8	28589,6	-14603,2
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	13,1	10,7	-2,4

Gaz kondensati



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Gaz kondensati, ming t.	246,4	176,4	- 70,0


2023- yil yanvar-fevral oylarida



2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2067,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,8 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi – 0,1 % ni (2022- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,03 %), o'rta-yuqori texnologiyali– 55,4 % (63,7 %), o'rta-quyi texnologiyali– 2,0 % (2,6 %) va quyi texnologiyali – 42,5 % (33,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 54,1 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 64,7 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 18,1 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 99,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,6 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 87,1 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,6 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 50,0 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 1,0 ming tonna tozalangan guruch (2022- yilning mos davriga nisbatan 35,1 % ga), 628,3 ming litr aroq (1,7 %), 7,4 ming tonna paxta tolasi (7,8 %), 11,3 ming tonna paxta chigiti (2,8 %), 2,8 ming tonna kalava ip (17,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 18,6 ming tonna portlandsement (61,1 %), 1,5 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (12,6 %), 13,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (26,8 %) ishlab chiqarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	617,6	628,3	10,7
O'simlik yog'i (tozalangan), t	1717,8	1502,0	- 215,8
Paxta tolasi, t	6912,0	7449,9	537,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	18915,5	13854,0	-5061,5
Polietilen, ming t.	48,8	42,1	- 6,7
Polipropilen, ming t.	14,0	12,5	-1,5

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-fevral oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 89,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 53,8 % ni, fizik hajm indeksi 58,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1111,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 104,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 0,5 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 325,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 110,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 12,3 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 458,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 150,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 50,0 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 32,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2022- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 100,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 103,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 48,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 165,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 81,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 28,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mebellar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-fevral oylarida mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 65,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 276,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 14,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-fevral oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 39,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 361,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 1889,0 %.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 76,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 13,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 342,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,1 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 78,7 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,6 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,7 % ga oshganligi va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 41.2 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 378,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 15,5 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (112,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xo'jayli (221,2 %), Taxiatoch (141,1 %) hamda Beruniy (126,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan past o'sish sur'ati Taxtako'pir (64,6 %), Qo'ng'iro't (78,8 %) hamda To'rtko'l (87,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 74,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 25,1 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 69,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 30,7 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 107,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 131,0 % ni tashkil etdi.

